

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

# **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**2.2022**

**научно-теоретический методический журнал  
Издаётся с 2001 года**

**Urganch – 2022**

**“ILM SARCHASHMALARI”** ilmiy-nazariy, metodik jurnal

---

**YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy**, bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**TAHRIR HAY‘ATI:**

**ABDULLAYEV Bahrom**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**ABDULLAYEV Ikrom**, biologiya fanlari doktori, professor (Xorazm Ma‘mun akademiyasi),  
**ABDULLAYEV Ilyos**, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ABDULLAYEV Ravshanbek**, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),  
**ABDULLAYEV O‘tkir**, tarix fanlari doktori (UrDU),  
**ALEUOV Userbay**, pedagogika fanlari doktori, professor (Nukus davlat Pedagogika instituti),  
**BERDIMUROTOVA Alima**, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),  
**DAVLETOV Sanjarbek**, tarix fanlari doktori (UrDU),  
**DO‘SCHONOV Tangribergan**, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),  
**HAJIYEVA Maqsuda**, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),  
**IBRAGIMOV Zafar**, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),  
**IBRAGIMOV Zair**, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, AQSH),  
**IMOMQULOV Sevdiyor**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**JUMANIYAZOV Maqsud**, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**JUMANIYOZOV Otaboy**, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),  
**KALANDAROV Aybek**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, mas‘ul kotib, UrDU),  
**KAVALYAUSKAS Vidas**, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),  
**NAVRUZOV Qurolboy**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**OLLAMOV Yarash**, yuridik fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentining Xorazm viloyatidagi Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi),  
**OTAMURODOV Sa'dulla**, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),

**PRIMOV Azamat**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),

**QUTLIYEV Uchqun**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),

**RO'ZIYEV Erkinboy**, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),

**SADULLAYEV Azimboy**, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O'zMU),

**SADULLAYEVA Nilufar Azimovna**, filologiya fanlari doktori (O'zMU),

**SAGDULLAYEV Anatoliy**, tarix fanlari doktori, akademik (O'zMU),

**SALAYEV San'atbek**, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),

**SALAYEVA Muxabbat Soburovna**, pedagogika fanlari doktori (UrDU),

**SATIPOV G'oiqnazar**, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor (UrDU),

**XODJANIYOZOV Sardor**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o'rinbosari, (UrDU),

**YOQUBOV Jamoliddin**, filologiya fanlari doktori, professor (O'zDJTU),

**O'ROZBOYEV Abdulla**, filologiya fanlari doktori (UrDU),

**O'ROZBOYEV G'ayrat**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),

**G'AYIPOV Dilshod**, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL**

**OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI•2022 2(176)**

**MUASSIS:** Urganch davlat universiteti•Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro'yxatdan o'tgan•**GUVOHNOMA № 1131.**

Oybek lirik asar oniy kechinmani tasvirlashi, ayni damda, ko'ngilda kechayotgan tuyg'ularni aks ettirishi, go'zallik va nafosat tuyg'usini o'stirishini yaxshi biladi. Biroq bu holni mumtoz adabiyotga nisbat beradi va inkor etadi. Shu orqali davr adabiy siyosatini tasdiqlashga majbur bo'lar ekan, aksincha yo'l tutilsa, o'zi ham davrning kurashchan intilishlariga "yot unsur" sifatida ayblanishini teran anglaydi.<sup>1</sup>

Adabiyot hayotni jonli va umumlashgan obrazlarda tasvirlasa, badiiy teran, fikr-hisga to'yingan bo'lsagina, kitobxon fikr va tuyg'ulariga ta'sir qilishi, uning ma'naviy-ruhiy olami hamda badiiy didini yuksaltirishi mumkin. Buni yaxshi anglagan Oybek adabiyotga estetik tarbiya quroli deb qaraydi: "Adabiy asarlar turmushni jonli ko'rsatib, odamlarning fikr va tuyg'ulariga kuchli ta'sir qiladi. Badiiy chuqur, fikr-his jihatidan to'la adabiy asarlar o'quvchini uzoq vaqt o'ziga bog'lab, asir qilib oladi. Adabiyot turmushni abstrakt tushuntirmay, konkret badiiy umumlashtirib, jonli anglatadi.

Adabiy asarlar ila ma'lum bir yo'nalishda ommani tarbiya qilish, madaniy saviyasini, zavqini ko'tarish mumkin." Shubhasiz, olim fikr-qarashlari mafkuraviylikdan butkul xoli emas. Ammo Oybek badiiy adabiyotning estetik funksiyasini anglashda zamonasiga nisbatan ancha ilg'or pozitsiyada bo'lgan. Sho'ro davrida yaratilayotgan lirik she'r va lirik qo'shiqlarning yetarli darajada ommalashmayotganligi sabablarini quyidagi faktorlarda ko'radi:<sup>2</sup>

–Yosh shoirlar sodda, samimiy, yorqin, jozibador obrazlarga boy, go'zal she'r va qo'shiqlar yoza olishmagani yoxud bu masalaga yetarlicha ahamiyat berishmayotgani;

–ommaning madaniy va adabiy saviyasi yetarlicha hisobga olinmayotgani;

–yangi mavzulardagi lirik asarlardan ko'ra, xalq orasida qadimdan keng tarqalgan diniy g'azal-lar, ishqiy qo'shiqlar ta'siri kuchli ekanligi;

–ijtimoiy mavzularda bitilgan qo'shiqlar quruq so'zlar yig'indisi, zavqsizlik va ritorikadan iboratligi, lirizmdan begonaligi bois kitobxonda his-hayajon uyg'ota olmasligi;

–xalq ijodiyotida mavjud kuy-qo'shiqlar chuqur tekshirilib, shu asosda, mukammal yangi shakllar yaratilmayotgani;

–bu ishga tajribali va kuchli shoirlarning jalb etilmaganligi.

Agar diqqat qilinsa, Oybek qarashlarida "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi"ni tuzgan Hamza ijodiy tajribasidayoq ko'zga tashlangan: "Ba'zi qabih she'rlar o'rniga milliy she'rlar tartib berish" tamoviliqga erishish kuzatiladi.<sup>3</sup> Oybek ham xalq orasida qadimdan keng tarqalgan diniy g'azallar, ishqiy

amoyninga erishishi kuzatildi. Oybek ham xalq orasida qadimdan keng tarqalgan diniy g'azalalar, lirik qo'shiqlarni muayyan darajada inkor etadi. U adabiyot maydonidagi eskilik va yangilik kurashini badiiy shaklda emas, balki mazmunda ko'rgani bois ham, "eski" qo'shiqlarni diniy-ilohiy mazmuni jihatidan rad etadi. Biroq uning bu inkori xalq ijodiyotida mavjud kuy-qo'shiqlarni teran ilmiy tekshirish, yangi shakllarni mukammallashtirishda ulardan ijodiy foydalanishni ham nazarda tutadi.

Oybek nazdida lirik nafislikni ta'minlash soddalik, samimiyat, yorqinlik, jozibadorlik, obrazlilik bilan chambarchas bog'liq tarzda yuzaga chiqadi. She'riyat nafaqat mukammal shakl va teran mazmun jihatidan yangi, balki lirizmga boy, kitobxon madaniy va adabiy saviyasiga mos, ta'sirchan, zavqli bo'lmog'i lozim. Aks holda, u quruq so'zlar yig'indisi va ritorikadagina iborat bo'lib qoladi va lirik haroratdan mahrum bo'ladi. Illo, chinakam lirik asar badiiy-estetik tajriba maktabini o'tagan iste'dodlar tomonidagina yaratiladi.

**Yoqubova Sevinchoy (ToshDO'TAU 2-bosqich tayanch doktoranti)**  
**JADID SHE'RIYATIDA RANG BILAN BOG'LIQ RAMZIYLIK**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada jadid she'riyatidagi rang bilan bog'liq ramziy ifodalar tahlil etilgan. Unda Cho'lpon, Fitrat singari shoirlar she'riyatidagi rang tasviri, uning mazmun-mohiyati, she'r-dagi tuyg'u va kechinma ifodasida rang bilan bog'liq ramziylikning o'rni atroflicha o'rganiladi. Maqola muallifi ilgari surilgan fikrlarini muxtasar holda umumlashtiradi.*

***Аннотация.** В статье анализируются символические выражения, связанные с цветом в поэзии джадидов. Подробно исследуется изображение цвета в поэзии таких поэтов, как Чолпон, Фитрат, его содержание, роль цветовой символики в выражении эмоций и переживаний в поэзии. Автор статьи обобщает выдвинутые идеи.*

---

<sup>1</sup> Yaqubov O. Adib hayoti va ijod psixologiyasi. T., 2008, 35-bet.

<sup>2</sup> Oybek. Mukammal asarlar to'plami. O'n to'qqiz tomlik. O'n to'rtinchi tom, T., "Fan", 1979, 85-bet.

<sup>3</sup> Hamza Hakimzoda Niyoziy. To'la asarlar to'plami. Besh tomlik. Ikkinchi tom, Toshkent, "Fan", 1988, 7-bet.

**Annotation.** *This article analyzes the symbolic expressions associated with color in Jadid poetry. The depiction of color in the poetry of such poets as Chulpan, Fitrat, its content, the role of color symbolism in the expression of emotions and feelings in poetry is investigated in detail. The author of the article summarizes the ideas put forward.*

**Kalit soʻzlar:** *sheʼriy asar, adabiy janr, tuygʻu va kechinma, lirik qahramon, badiiylik, tasvir, ifoda, obrazlilik, ramz, oʻziga xoslik.*

**Ключевые слова:** *поэтическое произведение, литературный жанр, эмоции и переживания, лирический герой, искусство, образ, выражение, образность, символ, оригинальность.*

**Key words:** *poetic work, literary genre, emotions and experiences, lyrical hero, art, image, expression, imagery, symbol, originality.*

Oʻzbek jadid sheʼriyati milliy adabiyotimizning tarkibiy qismi va mantiqiy davomi boʻlib, u oʻzining gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari bilan ehtiborga molikdir. Choʻlpon, Fitrat, Avloniy, Hamza va boshqa koʻpgina shoirlarimiz ijodiy merosi bu jihatdan xarakterlidir. Jadid shoirlari ijodida rang-barang obrazlar, ifoda vositalari, ramziy tasvirlar mahorat bilan qoʻllanilgan. Shulardan biri rang bilan bogʻliq ramziylikdir. Oʻzbek jadid sheʼriyatidagi rang bilan bogʻliq ramziylik mohiyatini chuqurroq englash uchun ranglar va ularning oʻziga xos tabiati, sheʼriyatdagi vazifalari haqida muayyan tasavvurga ega boʻlishimiz lozim.

Bilamizki, ranglar xalqning urf-odatlarini, ijtimoiy hayoti, madaniyati, diniy qarashlari bilan bogʻliq bevosita bogʻliqdir. Adabiyotshunosligimizda ranglarning ramziy mahnoga egaligi xususida bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Bu oʻrinda S.Oʻtanovanning “Alisher Navoiy gʻazaliyotida rang simbolikasi”,<sup>1</sup> N.Jumatovanning “Hozirgi oʻzbek sheʼriyatidagi rang bilan bogliq ramziy obrazlar” nomli nom-zodlik dissertatsiyalarini<sup>2</sup> misol qilishimiz mumkin.

Taniqli navoiyshunos Y.Isʼhoqovning Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoni asosida yaratilgan “Ranglar ramzi” nomli maqolasi ham jiddiy tadqiqotlardan hisoblanadi. Ushbu maqolada ustoz navoiyshunos “Xazoyin ul-maoniy”da rang bilan bogʻliq 31 ta gʻazal borligini keltirib oʻtadi va ulardan ayrimlarini tahlilga tortadi.<sup>3</sup>

Yer yuzidagi qutblarning har biri alohida ranglar bilan belgilangan. “Qora rang – shimolning, qizil – janubning, yashil – sharqning, oq – gʻarbning ramzi” degan maʼlumot – oʻttizinchi, qirqinchi yillardayoq

janadaning, yashni binaqning, oq g'arabning ramzi degan mamakat o'z tuzilishi, qizilning yilday oq fanda xrestomatik bir ma'lumotga aylangan".<sup>4</sup>

Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi azaliy kurash tasvirlangan "Avesto"da ham ranglar tasviriga alohida ehtibor berilgan. Jumladan, unda qora rangning ziddi o'laroq oq rang ta'rif va tavsif etiladi. O'rta Osiyo xalqlarida oq rang, ezgulik, soflik, haqiqat belgisi hisoblanadi. Ushbu ranglarga har bir xalqda turlicha qarashlar mavjud. Masalan, hindlarda oq rang motam ramzi hisoblansa, ko'pgina xalqlarda qora va ko'k ranglar qayg'u ramzi sifatida ko'riladi.<sup>5</sup>

O'tmishdagi janglarda yengilgan tomon oq bayroq ko'tarib, bu sulh mazmunini anglatgan. Qoraxoniylar va Abbosiyilar hukmronligi davrida qora rang alohida nufuzga ega bo'lganligini ko'plab tarixiy manbalar tasdiqlaydi.

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqulning bir qator ilmiy maqolalari aynan qora rang tadqiqiga bag'ishlangan. "Turkiy qavmlar islomgacha va islomdan keyin ham qora rangdan salbiy ma'no, holat va hodisalarni xarakterlashda nechog'lik keng foydalanishgan bo'lmasin, haq ahli, ma'no va ishq sohiblaridan hech bir kishi mohiyati ilohiyada qora rangning muqaddasligiga shubha qilmagan. Hatto, Sharq she'riyatida takror-takror ishlatilgan «qora ko'z» (chashmi siyoh), «qora zulf» (zulfi siyoh), «qora xol», «qora balo» singari o'nlab istioraviy ibora va tashbehlar irfoniy haqiqatlar ifodasi uchun ham xizmat ettirilgan".<sup>6</sup>

Asrlar osha she'riyatimizda qo'llanib kelingan rang bilan bog'liq ramziylik jadid she'riyatida ham alohida o'rin tutadi. Jadid shoirlari ijodida eng ko'p uchraydigani qora rang bilan bog'liqdir.

Cho'lpon "O'ch" nomli she'rida shunday yozadi:

*Xayolimning qora kiygan hur qizi,*

---

<sup>1</sup>O'tanova S. Alisher Navoiy g'azaliyotida rang simbolikasi. Fil. fan. nomzodi...dissertatsiyasi avtoreferati, T., 2011.

<sup>2</sup>Jumatova N. Hozirgi o'zbek she'riyatidagi rang bilan bogliq ramziy obrazlar. Fil. fan. nomzodi...dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent, 2000.

<sup>3</sup>Is'hoqov Y. Navoiy poetikasi. T., "Fan", 1983, 124-bet.

<sup>4</sup>Ibrohim Haqqul. Zanjirband sher qoshida. Toshkent, "Yulduzcha", 1989, 14-bet.

<sup>5</sup>Shu manba. 44-bet.

<sup>6</sup>Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. T., "Fan", 2007, 34-bet.

*Parda to'sgan yuzin senga ochdi!*<sup>1</sup>

Ushbu o'rinda qora rangning motam rangi ekanligiga urg'u berilgan bo'lib, xayolning motam kiyimini kiyishi uning qayg'u-g'amga cho'mganligini, ammo, shunga qaramay erk, ozodlikka bo'lgan yuksak ishonchini so'ndirmagan, ruhan hur bo'lgan qizga o'xshatilishi Cho'lponning san'atkorona mahoratini ko'rsatadi.

Cho'lponning "Tun" nomli she'rida esa lirik qahramon:

*Kel. Endi tashlama, qo'yma*

*Bu tunning qo'ynida yolg'iz.*

*Hijronni boshima yoyma,*

*Ey tunde sochi qora qiz!..*<sup>2</sup>

deya tuyg'ularini ifoda etadi. Bunda shoir butun qorong'i kechaning vahimasini chuqur his qilgan holda tunning manzarasini chizadi. Uning inson ruhiyatiga ta'sirini jonlantiradi. She'rda qorong'ulik ramzi birinchidan, yorning sochlari qoraligiga, ikkinchidan, mahbubasisiz o'tayotgan kunlar zulmatdek ekanligiga ishora qilyapti.

Cho'lpon she'riyatida ko'pgina masalalar qatori xotin-qizlar mavzusiga ham keng o'rin berilgan. Shoir bunday she'rlarida xotin-qizlarni kelajak nasl davomchilari deb qarab, ayollarni jamiyatdagi mavqeyini ko'tarish, ularning ilm-ma'rifat egallashlari, o'z taqdirleri uchun o'zlari mas'ul bo'lishlarini ta'minlash singari muammolarni yoritadi.

Xotin-qizlar taqdiri va nafosatiga bag'ishlangan "Sharq qizi" she'rida esa:

*Men bir Sharq qiziman. Sharqning o'zidek*

*Butun tanim, jonim – xayol uyasi,*

*Mening qora ko'zim kiyik ko'zidek,*

*Belgisiz ovchining o'qin ko'rgusi.*<sup>3</sup>

deya Cho'lpon tabiat mo'jizasi sanalmish ayollar dunyosi va qalbini nozik did bilan ilg'ab oladi va shoh misralarga joylaydi. Bunda shoir ayollarning erksizligini, Sharqning erksizligiga uyg'un holda tasvirlagan. Misralardagi qora ayollar hayotining uqubatli ekanligini, ularda haq-huquq yo'qligini ifodalashga yo'naltirilgan.

Cho'lpon she'riyatida ba'zi o'rinlarda qora rang *qorong'i* tarzida ham qo'llaniladi. Bunda shoir

Choʻlpon sheʼri yanada baʼzi oʻrinlarda qora rang qorongʻi tarzida ham qoʻllanadi. Bunda shoir tasvirni yanada kuchaytirib, tuygʻu va kechinmani tahsirchan yetkazib beradi. Lirik qahramon dardi, qaygʻusi va iztiroblarini ushbu rang orqali yanada yorqinroq tasvirlaydi.

Shoirning “Koʻklam qaygʻusi” sheʼrida bu fikrlarimiz tasdigʻini kuzatishimiz mumkin:

*Ey qorongʻi uzun qishning xayoli,*

*Koʻklam chogʻi koʻzlarimda oʻynama.*

*Ayriqliqning chidab boʻlmas maloli,*

*Koʻkat, maysa yuzlarida qaynama.<sup>4</sup>*

Mumtoz shoirlar ijodida koʻpincha qish baxtsizlik va musibat, kulfat, bahor yoshlik va goʻzallik, mehnat va farogʻat ramzi sifatida ifodalansa, kuz – xazon fasli sifatida tushkun bir kayfiyatning, boʻlajak fojeaning darakchisi tarzida tasvirlanadi. Mumtoz adabiyotda fasllarning insonda paydo qiladigan turli xil holat va kayfiyatidan foydalanib, lirik qahramonning murakkab kechinmalari yoritiladi. Shoirlarimiz shu yoʻl bilan insonning tabiatga, hayotga munosabatini, kelajakka umidvorligini chuqurroq ochib berishadi.<sup>5</sup>

Bu fikrlar tasdigʻini Choʻlponning yuqoridagi sheʼrlari misolida ham kuzatishimiz mumkin. Yurtga koʻklam kelgan boʻlsa-da, lirik qahramon qishning qorongʻi va qaygʻuli xayolidan qutula olmagan. Ayriqliqning chidab boʻlmas alamlari uni doimo domiga tortib turadi.

Shoir lirik qahramoni kelajakka umidvor banda sifatida oʻtib ketgan alamli kunlarni unitishni, ulardan qutulishni istaydi. Bunda qish orqali millat boshiga tushgan qaygʻuli kunlarni ifodalasa, bahor kelajakdagi baxtli, erkin hayotga ishoradir.

---

<sup>1</sup> Choʻlpon. Yana oldim sozimni. T., “Adabiyot va sanhat”, 1991, 372-bet.

<sup>2</sup> Shu manba. 454-bet.

<sup>3</sup> Shu manba. 388-bet.

<sup>4</sup> Choʻlpon. Sheʼrlar. Andijon, 1997, 26-bet.

<sup>5</sup> Matyoqubova T. Poetik idrok va mahorat. T., “Fan va texnologiya”, 2011, 84-bet.

Cho'lpon she'riyatida qora rang bilan bog'liq fikrlar motam, o'lim bilan bog'liq o'rinlarda ham keltiriladi. Bunda shoir o'limning inson uchun cheksiz fojia ekanligini ushbu rang orqali ta'sirchan tasvirlaydi. Shoir "Mahmudxo'ja (Behbudiy) xotirasi" nomli she'rida shunday yozadi:

*Amalimning yulduzi, kim ko'z tikdi  
Qora, jirkanch... o'lim qoni yerlarga.  
Savol berdim: "Yo'qotganim qayda?" – deb,  
O'zimni ham yutmoq bo'lgan yerlarga.*

Shoir tashxis va mubolag'a san'ati orqali Mahmudxo'ja Behbudiy o'limi tufayli qalbida tug'yonurgan qayg'uni obrazli holda tasvir etadi. Bunda qora rangi jirkanch bilan birgalikda ulug' ma'rifatparvar o'limining sababiga ham ishoralar qilib o'tadi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'limi millatimiz uchun katta yo'qotish ekanligiga urg'u beradi.

Qora rang bilan bog'liq ramziy ifodalar Abdurauf Fitrat ijodida ham kuzatiladi. Fitratning "Yurt qayg'usi" (Temur oldinda) mansurasida shoir o'z qahramoni tilidan Amir Temurga murojaat qiladi:

*Bag'rim yoniq, yuzim qora, ko'nglim siniq, bo'ynim bukuk.  
Sening ziyoringga keldim, sultonim!*

Bunda biz shoir lirik qahramonini yurt va millat fidoyisi, o'z xalqi kelajagi uchun qayg'uruvchi vatanparvar sifatida namoyon bo'ladi. Ammo u yurtni zulmkorlardan xalos etish uchun Amir Temur kabi millat fidoyilari yetishmayotganligidan chuqur iztirob chekadi. Shu yurtning jonkuyar farzandi sifatida Turonning eski sharafini qaytarishni astoydil istaydi va "g'ayrati dunyoga sig'magan" bobomizdan bu yo'lda oq fotiha so'raydi.

Bu kabi sadafdek so'zlarni tanlay olishi shoirning mahoratidan dalolat beradi. "Parcha" nomli she'rida ham shoir qora rangdan foydalanib, go'zal misralarni qalamga oladi:

*Ur, ur! Sening tirnoqlaring nozli, nozli urduqcha  
Yuragimning bitib qolg'on yaralari ochilsun.  
Cholg'i qili sening nozli tirnog'ingla titrarkan,  
Umidimni qoplab turg'on qora bulut yirtilsun.<sup>1</sup>*

Fitrat lirik qahramoniga borliq oshiq va mashuqa munosabatlaridan iboratday tuyuladi. Ma'shuqaning harmoqlari cholg'i qilini titratganida, qora bulutlar bunga hardosh bera olmay, natijada parchalanib

ning barmiqalbi uchun qalini ulatganida, qora bulutlar banga bardoshi bera olinay, natijada paronadamo ketadi va umid quyoshi chiqadi.

Fitrat “Ovunchoq” nomli she’rida shunday yozadi:

*To’sib turgan oydinlikning yo’lini*

*Shu qop-qora, eski, titrak bulutlar.*

*Kuchli bir yel ko’rgach turmas, yirtilar,*

*Umid kuni sening uchun ham tug’ar.<sup>2</sup>*

Ushbu she’rning mohiyatida shoirning erkin va ozod vatan orzusi mujassamlashgan. Shoir lirik qahramoni millat taqdirini o’z qismati deb bilgan, uning erksizligidan ruhiy iztirob chekuvchi insondir. Ammo lirik qahramon umidsizlikka tushmaydi. Kelajakda baxtli va farovon kunlar kelishiga ishonadi.

She’rdagi “oydinlik yo’li” – erkinlik, “qop-qora, eski, titrak bulutlar” – erkinlik yo’lidagi to’siq, “kuchli bir yel” – kurashchanlik ma’nosini ifodalab kelgan. Shoir ramziy ifodalar orqali o’zining ezgu niyatlarini, orzu-umidlarini ifodalay olgan.

Fitratning “Nega bo’yla?” she’rida qora rang bilan bog’liq tasvir shunday keltiriladi:

*Sen kelgach,*

*Ko’nglimni*

*Qayg’ular-la, motamlar-la o’ragan*

*Qora qalin pardalar*

*Yirtildi.<sup>3</sup>*

She’r lirik qahramoni ayrilq tufayli qayg’u va iztirob chekadi. Ammo u kutgan insoni kelgach, bunga chek qo’yiladi. She’rda qora rang lirik qahramon bardoshi, chidamini tasvirlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Kuzatishlarimiz shuni ko’rsatadiki, o’zbek jadid shoirlari ijodiy merosidan bunday misollarni ko’plab keltirishimiz mumkin.

---

<sup>1</sup> Fitrat. Chin sevish. T., “Adabiyot va san’at”, 1996, 30-bet.

<sup>2</sup> Shu manba. 27-bet.

<sup>3</sup> Shu manba. 30-bet.

Umuman, jadid she'riyati nafaqat g'oyaviy yo'nalishi, balki yuksak badiiyati bilan e'tiborga mo-likdir. Unda qo'llanilgan ko'pgina ramziy ifodalar orasida rang bilan bog'liq ramziylik alohida ajralib tu-radi. Jadid shoirlari qo'llagan ramziy tasvirlar tuyg'u va kechinmani ta'sirchan yoritishga, lirik qahramon ruhiy olamini o'ziga xos tarzda ifodalashga yordam bergan.

**Feruza Eshqobilovna Abduraxmonova (O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti; feruzaxon8484@gmail.com)**

### **O'ZBEK FOLKLORIDA "YOR-YOR" MAROSIM QO'SHIQLARINING JANRIY XUSUSIYATLARI**

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada o'zbek xalq marosimlarining asosiy uzvlaridan bo'lgan "Yor-yor" qo'shiqlari haqida so'z boradi. "Yor-yor" janri qadim tarixga ega bo'lib, o'ziga xos janriy xususiyatlari, syujet tuzilishi, go'zal badiiyati va yorqin obrazlar tizimi bilan farqlanib turadi.*

***Аннотация.** Статья о песнях «Ёр-ёр», одном из основных элементов узбекских народных обрядов. Жанр «Ёр-ёр» имеет древнюю историю и отличается неповторимыми жанровыми особенностями, сюжетной структурой, красивым искусством и системой ярких образов.*

***Annotation.** This article is about the songs "Yor-yor", one of the main elements of Uzbek folk rituals. The genre "Yor-yor" has an ancient history and is distinguished by its unique genre features, plot structure, beautiful art and a system of bright images.*

***Kalit so'zlar:** marosim, an'ana, urf-odat, janr, nikoh, to'y, motam, aytim.*

***Ключевые слова:** церемония, традиция, обычай, жанр, брак, свадьба, траур, сказание.*

***Key words:** ceremony, tradition, custom, genre, marriage, wedding, mourning, saying.*

Folklor asarlarining rang-barangligi uni tur va janrlarga ajratib o'rganishni talab qiladi. Yirik uch turga ajratib o'rganilayotgan har bir adabiy turning o'zi ham xilma-xil janrdagi badiiy asarlardan tashkil topgan. Shunga ko'ra, har bir asarning mavjud xususiyatlariga qarab janr mansubiyati aniqlanadi. Jumladan, folklorning ko'plab janrlarini o'z ichiga olgan nikoh marosimi folklori, eng qadimiy va go'zal marosimlardandir.

Nikoh marosimi folklori va undagi janrlarning ijro o'rni, ijrochilar tarkibi, ijro tarzi, janrning o'ziga

xos ba'zi xususiyatlari haqida folklorshunos olimlar M.Alaviya, J.Qobulniyozov, O.Sobirov, B. Sarimsoqov, S.Ro'zimboyev, Sh.Turdimov, J.Eshonqulov, S.Davlatov, Sh.Barotova, L.Xudoyqulova, Sh. Imomnazarova va boshqalar aytib o'tganlar.<sup>1</sup>

O'zbek nikoh to'ylari boshqa to'y marosimlaridan urf-odat va irim-sirimlarga, go'zal va betakror odatlarga boyligi, jozibador tabiati bilan ajralib turadi. To'yda ijro etiladigan kuy-qo'shiqlar esa, marosimning go'zal kulminatsiyasi hisoblanadi. To'y qo'shiqlari qachon paydo bo'lganligini aniq aytish qiyin, ammo ikki yoshni oila qurish masalalari paydo bo'lgandan boshlab, to'y qo'shiqlari ham kuylana boshlangan deyish mumkin. Bu uning matnlaridagi so'zning magik qudratiga ishonish, olovga sig'inish kabi kishilik jamiyati taraqqiyotining ilk belgilarini saqlanib qolganligi bilan xarakterlanadi.

Folklor asarlarining har biri o'ziga xos janr xususiyati bilan bir-biridan farqlanadi. Mana shu nuqtayi nazarga ko'ra "Yor-yor"lar ham muayyan janriy o'ziga xosliklarga ega. Quyida "Yor-yor" janriga xos xususiyatlarni keltirib o'tamiz. Albatta, bu shartli bo'lib, bu janrni yanada chuqurroq tadqiq etish yangi natijalarni va xulosalarni berishi mumkin.

"Yor-yor" qadim zamonlardan beri nafaqat o'zbek, balki tojik, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman va boshqa turkiy xalqlar og'zaki ijodida mavjud. "Yor-yor"lar ikkilik yoki to'rtlik shaklidagi termalardan iborat bo'lib, band oxirida "Yor-yor" atamasi qo'shib ijro etiladi. Ba'zan to'rtliklar birikib, o'ndan ortiq misralarni o'z ichiga oladi va voqeabandlik hosil qiladi. Qardosh xalqlar "Yor-yor"larini kuza-tar ekanmiz, aynan o'zbek "Yor-yor"lari tojik, qozoq, qoraqalpoq tilida jaranglayotganini ko'rish mumkin. Demak, xalqlarimiz og'zaki ijodida mushtaraklik kuchli. Buni ularning asrlar davomida bir xalq, bir elat sifatida yonma-yon yashaganliklarining natijasi deb izohlash mumkin.

"Yor-yor"lar xuddi allalardek, yangi bir hayot muqaddimasi boshlanayotgan paytda ijro etiladi. Xalq qarashlariga ko'ra, "Alla" so'zi Allohni eslash, unga ishonch va panoh tilash vajidan aytilganidek,

---

<sup>1</sup> Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. Toshkent, 1974, 184–194-betlar; Sarimsoqov B. Yor-yorlar. O'zbek fol'klori ocherklari. Uch jildlik. 1-jild, Toshkent, 1988, 199–203-betlar; Davlatov S. An'ana va marosim. (Qashqadaryo vohasi misolida). O'quv-uslubiy qo'llanma, Toshkent, "Fan", 2009, 65–84-betlar; Barotova Sh. O'zbek xalq "Yor-yor"larining janr xususiyatlari. "O'zbek tili va adabiyoti", 1998, 2-son, 46–48-betlar.

## MUNDARIJA

### FIZIKA-MATEMATIKA

---

<b>Bekchanov Sardor.</b> Trigonometrik tengsizliklarni isbotlash metodlari.....	3
<b>Mirzayev Elnur Maxmanazar o‘g‘li.</b> Tekisliklarning o‘zaro kesishish chiziqlarini aniqlashning nazariy hamda amaliy bosqichlari.....	5
<b>Шаропов Уткиржон Баходирович.</b> Влияние морфологии на эффект зарядки поверхности кристаллов оксида цинка.....	10
<b>Наврузов Куролбой, Шарипова Шохиста Бакберган кизи.</b> Пульсирующие течения вязкой жидкости в трубе с упругими стенками.....	15
<b>Рузиев Тулкин Раззокович.</b> Собственные крутильные волны в слоистой цилиндрической трубе с учетом реологических свойств материалов.....	22

### FALSAFA

---

<b>Majitov Maxmud Abdimo‘min o‘g‘li.</b> Shaxs ijtimoiy mohiyatiga postmodern jamiyat tendensiyalari ta’sirining asosiy jihatlari.....	27
<b>Кадирова Дилбар Солиховна.</b> Эстетик тарбиянинг моҳияти, омиллари ва потенциаллари.....	34
<b>Саматов Хуршид Улмасжонович.</b> Халқ билан мулоқотга тўқинлик қилувчи иллатлар.....	39
<b>Музаффаров Фируз Давронович.</b> Муҳаммад Ғазолийни англашда баъзи мулоҳазалар.....	44
<b>Ашуралиевна Лалихон Мухамеджанова.</b> Отражение концепции человека в учении древности.....	47
<b>Агзамова Нилуфар Шухратовна.</b> Человек и окружающая среда.....	51

### TILSHUNOSLIK

---

<b>Жамолиддинова Дилноза Мирхожиддиновна, Эрназарова Хилола.</b> Ўзбек тилидаги кириш ва киритмаларнинг лингвопоэтик хусусиятлари хусусида мулоҳазалар.....	54
<b>Musayev Abduvali.</b> Adabiy til va nutqda “sleng”ning qo‘llanishi.....	58
<b>Юсупова Кусола.</b> Импровизациянинг предикаты аниқлик ва шарт шайлигида фолк бйғири мун...	

Юсупова Камола. Императивликнинг предикати аниқлик ва шарт маънидаги феъл булган конструкциялар орқали ифодаланиши.....	63
Курбанова Илмира Шарифовна. Темир йўл терминологияси – муайян мақсадга қаратилган тилнинг лексик таркиби сифатида.....	66

## ADABIYOTSHUNOSLIK

Yoqubov Odil. Adabiy hodisalarni anglash yo‘li.....	73
Yoqubova Sevinchoy. Jadid she‘riyatida rang bilan bog‘liq ramziylik.....	75
Feruz Eshqobilovna Abduraxmonova. O‘zbek folklorida “Yor-yor” marosim qo‘shiqlarining janriy xususiyatlari.....	79
Rahimova Moxinabonu Abduxamid kizi. Эссе жанрининг ўзига хос хусусиятлари, тузилиши ва турлари.....	82
Kodirova Zuxra Obidxon kizi. Rashiddin Vatvotning “Хадойиқ ус-сехр фи дакойиқ уш-шеър” асари – шарқ мумтоз поэтикаси манбаси.....	87
Sabirova Nasiba Ergasheva. Хоразм бахшичилик анъаналари ва уларнинг локал хусусиятлари...90	
Pirimkulov Abduraxmon. Комил Аваз туюқлари.....	95

## PEDAGOGIKA

Yadgarov Baxodir Jumatovich, Yadgarova Doniyor Baxodirovich. Qisqa masofaga yuguruvchi 14–15 yoshli yengil atletikachilarning og‘ir atletika mashqlari orqali kuch sifatini oshirish.....	98
Ataullayev Zokir Maxsudovich, Tojiboyev Raximberdi Yarashboy o‘g‘li, Rajabov Xudoyor Madrimovich, Eshchanov Ruzimboy Abdullayevich. Kimyoni o‘qitishda o‘quvchilarning intellektual rivojlanish muammolarini hal qilishda algoritmik yondashuvdan foydalanish.....	101
Allaberganova Muyassar Rimberganovna, Olloberganova Muyassar Davlatboy qizi, Ravshanqulov Abbos Ravshanqul o‘g‘li. Ta‘limda iot ilovalarining roli.....	105
Madaminov Uktamjon Ataxanovich, Ishmetov Bahrom Yangibayevich, Sultanov Otajon Rajabboy o‘g‘li. Oliy ta‘lim tizimida web dizayn asoslarini o‘rgatishda axborot texnologiyalaridan foydalanish.....	108

<b>Polvannazirova Sevara Xasanboy qizi.</b> Ingliz-o‘zbek tillari grammatikasini chog‘ishtirma o‘rganish masalasiga doir ba’zi mulohazalar.....	112
<b>Pulatova Nigoraxon Raximjonovna.</b> Oliy ta’limda etnoekologik madaniyatni shakllantirishning mavjud holati va istiqboldagi ustuvor yo‘nalishlar.....	114
<b>Hurbobov Shirinbek.</b> “Alpomish” dostonini ўrganiш: amaliy tajribalar va технологиялар.....	118
<b>Nafasov Mirzomurod Muxamadovich.</b> Ta’lim jarayonida byod modelidan foydalanishning ahamiyati....	121
<b>Мирзаев Акрамжон Ўктамжонович.</b> Рақамли дунёда ўқитишда электрон таълим ва аралаш таълимнинг ўзига хос хусусиятлари.....	124
<b>Исмаилов Анвар Рустамович.</b> Компоненты педагогической культуры и их влияние на формирование педагогической компетенции.....	127
<b>Бекманова Жамиля Абдулаевна.</b> Совершенствование педагогических технологий всестороннего развития личности дошкольников на основе культурно-творческого подхода.....	132

## ILMIY AXBOROT

<b>Baratov Fayzullo Shukurovich, Qo‘shmatov Orifjon.</b> “Inson – kompyuter” tizimidagi subyekt faoliyatining xususiyatlari.....	135
<b>Nasrulloeva Nasiba Sadulloevna.</b> Kompyuter va internet jargonlarining shakllanish xususiyatlari.....	138
<b>Отакулов Нодиржон Бахрамалиевич.</b> Француз ва ўзбек тилларида субколлоквиал фразеологик бирликлар тадқиқига доир.....	140
<b>Киличев Байрамали Эргашович.</b> Топонимлардаги ранг билдирувчи сўзлар.....	145
<b>Хамдамова Ханифа.</b> “Рустамхон” дostonидаги ўзлашмаларда кўп маънолик.....	149
<b>Axmedova Firuza Asrorovna.</b> Zamonaviy ingliz tilida neologizmlarning shakllanish xususiyatlari.....	152
<b>Xuramova Dildora Rahkmonkulovna.</b> Idiolektni ifodalovchi vositalarning semantik-stilistik o‘xshash va farqli jihatlari tadqiqi.....	155
<b>Normurodov Oybek Berdimurod o‘g‘li.</b> Sayyid Qosimiy ijodining o‘rganilishi.....	158
<b>Холмўминов Илхом.</b> Фольклор матнлар таржимасида адекватлик ва эквивалентлик муаммолари...160	
<b>Saurov Ravshonbek Ruslanbek o‘g‘li.</b> Davlat xizmatlari ko‘rsatish institutlarining demokratik xususiyatla-	167

П.....	167
<b>Маткаримов Сапарбой Ражабович.</b> Навойнинг “Бизга ул махваш тилию кўнгли бирла ёр эмас” деб бошланувчи ғазалининг француз тилига таржимаси таҳлили.....	170
<b>Ismoilov Ixtiyorjon A'zamjonovich.</b> Jinoyat va jazoning ijtimoiy-falsafiy muammolari.....	173
<b>Сейтова Зухрагон Пиржановна.</b> Стирание различий в гендерных ролях.....	176
<b>Шукурова Рамина Джалолитдиновна.</b> Актуализация глагольных фразеологических единиц в речи.....	179
<b>Рахманова Альбина Ходжаевна.</b> Образ пророка в концепции мусульманского востока Бунина.....	183
<b>Рахматова Саодат Амракуловна.</b> Актуальность навыков академического письма в технических ВУЗах.....	188
<b>Karimova Diyora Abduvaxidovna.</b> Phraseological Units as an Emotional Component of a Speech Portrait of a Serviceman.....	190
<b>Djuraev Abdulkhay Shukhratjanovich.</b> Consequences of Plagiarism and Possible Solutions.....	192
<b>Avezova Dildora Davlatovna.</b> Archaisms as a Problem of Translation.....	195

# **“ILM SARCHASHMALARI”**

Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali

Muharrir **Ro‘zimboy Yo‘ldoshev**  
Texnik muharrir **Sherali Yo‘ldoshev**  
Musahhihlar: **Туримова Тамара,**  
**Aybek Kalandarov**  
Ushbu songa mas’ul **Azamat Primov**

Terishga berildi: 21.02.2022  
Bosishga ruxsat etildi: 28.02.2022.  
Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.  
Rizograf bosma usuli. Tayms garniturası.  
Adadi 200. Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma №. 4

Hisob-nashriyot taba‘i 25

Shartli bosma tabag'i 23  
UrDU matbaa bo'limida chop etildi.

UrDU matbaa bo'limi matbaa faoliyatini boshlagani  
haqida vakolatli davlat organini xabardor qilish to'g'risidagi  
Tasdiqnoma (№3802-835f-ad22-c709-fbd1-1129-1986)  
asosida faoliyat yuritadi.

Manzil: 220110. Urganch shahri, H.Olimjon ko'chasi, 14-uy.  
Telefon/faks: (0362)-224-66-01;  
e-mail: [ilmsarchashmalari@umail.uz](mailto:ilmsarchashmalari@umail.uz)  
[ilmsarchashmalari@mail.ru](mailto:ilmsarchashmalari@mail.ru)  
Veb-sayt: [www.ilmsarchashmalari.uz](http://www.ilmsarchashmalari.uz)  
Telegram: <https://t.me/ilmsarchashmalari>